

16-dars. Misol va masalalar yechish



1. Ifodalarning qiymatini hisoblang va javoblarga ko'ra har bir sandiqdagi tangalar soniga mos ifodani ko'rsating.

$$3\ 003 : 3$$

$$305 \cdot 5$$

$$275 + 1\ 600$$

$$240 : 6$$

$$12\ 720 - 520$$

$$2\ 020 : 2$$

a)

1 525

d)

12 200

f)

1 875

b)

1 010

e)

40

g)

1 001

Ko'p xonali sonni o'rtasida 0 raqami bo'lgan songa ko'paytirishda, 0 ga ko'paytirish natijasida hosil bo'ladigan qator yozilmaydi va keyingi xonaga ko'paytirishga o'tiladi.

$$\begin{array}{r} 236 \\ \times 203 \\ \hline 708 \\ 000 \\ + 472 \\ \hline 47908 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 236 \\ \times 203 \\ \hline 708 \\ 472 \\ \hline 47908 \end{array}$$



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $738 \cdot 203$

d) $802 \cdot 379$

f) $679 \cdot 203$

b) $154 \cdot 207$

e) $607 \cdot 530$

g) $343 \cdot 304$



3. Bitta olmaning massasi qancha? Bitta nokning massasi-chi? Qaysi birining massasi katta va necha gramm katta?





4. Tenglamalarni yeching. Qaysi ildiz **9 ga** bo'linadi?

a) $(76\,000 - 8 \cdot x) : 4 = 17\,866$

b) $(y : 17 + 419) \cdot 9 = 4\,230$



5. Yoz davomida ona shaftolidan 12 litr, gilosdan esa undan 3 marta ko'p murabbo tayyorladi. Bundan tashqari, u 14 banka qovoqcha ikrasi ham tayyorladi. Barcha murabboni hajmi 500 ml bo'lgan bankalarga quydi. Jami nechta banka bo'ldi? (**Yodda tuting! 1 l = 1000 ml**)



6. Jasurning **olti xonali** kodli qulfi bor. U qulf uchun shunday kod o'ylab topdiki, istalgan ketma-ket uchta raqamning yig'indisi 20 ga teng. Jasur kodning faqat birinchi va oxirgi raqamini eslaydi. Unga qulf kodini eslashga yordam bering.

7 * * * * 9



7. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $565 \cdot 234 - 483 \cdot 145 + 25 \cdot (1\,236 - 989)$

b) $523 \cdot 485 - 27 \cdot 45 + (1\,275 - 995) : 5$

8. Beshta tuyada 1 t 375 kg yuk keltirildi. Avval 3 q 25 kg, so'ng 4 q 73 kg yuk tushirildi. Yana necha kilogramm yukni tushirish kerak?

